SCIENCE BOX

TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

Jild: 05, Nashr: 01 | Jan - 2025
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

“HAYRAT UL-ABROR”NING “BASMALA” BOBINING ILOHIY MANBALARGA MUROJAAT SHAKLLARI

Qudratov Erkin Abulqosimovich *Buxoro shahar Mir Arab o’rta maxsus islom ta’lim muassasasi mudarrisi*	

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining “Basmala” bobi “Xamsa” dostonining barcha dostonlari uchun kirish qismi vazifasini bajarishi va basmalai sharifning har bir harfi orqali ilohiy manbalarga murojaat qilinganligi haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Bayt, basma, bob, nasriy bayon, pir, oyat, hadis.*

Kirish

Alisher Navoiy o‘zining buyuk asari "Hayrat ul-abror"da, xususan, "Basmala" bobida, ilohiy manbalarga chuqur murojaat qiladi. Bu bob nafaqat "Hayrat ul-abror", balki butun "Xamsa" asarining kirish qismi vazifasini bajaradi. Maqolada, Navoiy "Bismillah"ni ta’riflayotganida, har bir harf orqali qanday ilohiy ma’nolarni ifodalaganligi tahlil qilinadi. Shoir "Bismillah"ning har bir harfi orqali insonni Allohga bo‘lgan sidqidildan yondashuvini ta’kidlaydi, shu bilan birga, ushbu kalima orqali mo‘minlar va kofirlarning holatini ochib beradi. Bu maqolada shuningdek, Navoiy asaridagi ilohiy manbalarga murojaat shakllari va tasavvufiy jihatlar ham o‘rganiladi.

Istiqlol sharofati o‘laroq Alisher Navoiy asarlariga munosabat o‘zgardi. Bugun mumtoz adiblarimiz asarlari shoir ko‘zlagan asosiy maqsad – islomiy mafkura asosida o‘rganilib, xalqimizni bunday bebaho durdonalardan bahramand qilib kelinmoqda. Mutafakkir ijodining ilohiy-irfoniy manbalardan oziqlanganligi e’tirof etildi. Bu ayniqsa, A.Rustamov, Y.Is`hoqov, A.Hayitmetov, B.Valixo‘jayev, N.Komilov, R.Vohidov, S.G‘aniyeva, I.Haqqulov, S.Olimov, H.Karomatov, E.Shodiev, Sh.Hayitov, O.Davlatov kabi olimlar va yana bir qator tadqiqotchilarning ishlarida yorqin namoyon bo‘lmoqda. Biroq “Xamsa”ning muqaddimaviy boblarini Alisher Navoiy dunyoqarashining yadrosi sifatida tadqiq etilgan ilmiy ishlar deyarli uchramaydi.

“Xamsa”dagi har bir doston Yaratgan Zot – Xudoning sifatlarini bayon etish va Unga hamd aytish bilan boshlanadi. Shu jarayonda shoir asar yozishdan ko‘zlagan maqsadini ham bayon etadi. Keyingi boblarda shoir o‘zining gunohkorligini e’tirof etib, Xudodan afv-u marhamat tilaydi; insoniyatga yuborilgan so‘nggi payg‘ambar Rasululloh Muhammad sallollohu alayhi va sallamni vasf etadi, me’roj voqeasini keltiradi; yozayotgan asarini qaysi sabab bilan, qaysi ishora yoki amr bilan yozayotganini ma’lum qiladi; ustozi – piri Abdurahmon Jomiyni maqtaydi; salaflari Nizomiy hamda Dehlaviyni ta’riflash asnosida ularning xamsalariga tanqidiy yoki ijobiy fikrini bildiradi; davlat hukmdori Husayn Boyqaroni ko‘kka ko‘tarib, olqishlash bahonasida o‘zining davlat boshqaruvi, siyosat va adolat bilan bog‘liq aniq tamoyillarini matnosti qismga joylaydi; biror shahzodaga yoki podshoh xonadoni vakiliga madhiya bag‘ishlaydi, unga nasihat qiladi.

Bu – Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi har bir dostonning muqaddimasidagi boblarning umumiy mazmunidir. E’tiborli jihati, shoir muqaddima boblarda yozayotgan dostonning mavzusini ham e’tibordan qochirmaydi. Balki umumiy mazmun uchun muqaddima boblarni poydevor qilib oladi.

“Hayrat ul-abror”dagi dastlabki bob “Bismillah”ning ta’rifiga va undagi har bir harfning muayyan ma’no anglatishiga urg‘u berilgan. Mazkur bob faqatgina “Hayrat ul - abror” uchun emas, balki umumiy “Xamsa” uchun ham tegishli ekani ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlangan, bobning o‘zi ham tahlilga tortilgan.[1] Taniqli olim Sultonmurod Olim ham “Basmalai sharif”ning she’riy sharhini baytma-bayt tahlil qilib, undagi harflarning zohiriy ko‘rinishlari bilan bog‘liq tashbehlarni alohida qayd etib: **“Arabiy harflar shakllari ham shoir xayoloti kuchi bilan shu qadar go‘zal tashbehlaru, teran ma’nolar ifodasiga asos bo‘lgan birgina bob misolida ham ko‘rish mumkinki, Navoiy ijodidagi arabiy yozuv-harflaru, harakatlaru, nuqtalar bilan bog‘liq timsollar poetikasini maxsus o‘rganish kerak”,** deydi.[2] Professor Rahim Vohidov esa nisbatan boshqacha mulohazalarini ilgari suradi: “Bismillohir Rahmonir Rahiym”ni yozuvda ifodalash uchun ishtirok etadigan har bir harf va belgiga ikki qutbdan nazar tashlanadi, yaxshi-yomon jihatlari oshkor etiladi”. [3]

Bismillohir-rahmonir rahim,

Rishtag`a chekti necha durri yatim[4]

Nasriy bayoni: “Bismillohir-rahmonir rahim”. Ushbu jumlada eng qimmatbaho durlar bir ipga tizilgandir.[5]

“Hayrat ul-abror”dagi dastlabki bayt Qur’oni karimning “Fotiha surasining 1-oyatiga tegishlidir:

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَٰنِ الرَّحِيمِ[6]

“Mehribon va rahmli Allohning nomi bilan boshlayman”. (Alloh taolo o’z kitobini «bismillah» bilan boshlagani musulmonlarga ham o’rnak, ular ham doim o’z so’zlarini va ishlarini «bismillah» bilan boshlamoqlari lozim. *(Fotiha surasi, 1-oyat)*[7]

Qolaversa, islomiy axloq me’yorlarida boshlanadigan har bir ishni “Bismilloh” boshlash kerakligi Hadislar bilan ham asoslangan. Jumladan,

أَبِي هُرَيْرَةَ رضي الله عنه قَالَ : قَالَ رَسُولُ اللهِ صَلَّى اللهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ : كُلُّ كَلَامٍ أَوْ أَمْرٍ ذِي بَالٍ لَا يُفْتَحُ بِذِكْرِ اللهِ فَهُوَ أَبْتَرُ

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rosululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: **“Har bir gap yoki muhim ish Allohning ismisiz boshlansa uning oxiri kesikdir”**.[8] *(Ahmad ibn Hanbal rivoyati)*

Alisher Navoiy “Bismillah”ni ta’riflashga kirishar ekan uni dastlab ipga tortilgan dur deb ataydi va yana quyidagi tashbehlarni keltiradi. Shoirning ta’rifiacha bu mo‘tabar kalima:

1. Davlat va din o‘ljasini, jannat g‘azoli – kiyigini band etuvchi kamand (Arqon).
2. Yoqasida mevalari ko‘p, “Alif”dan daraxt o‘sadigan, ichida jon va mangu tiriklik suvi (Hayvon suyi) oqadigan ariq.

[1] Rustamov A. “Bismilloh”ning ma’nosi. – ToshkenT.: Cho’lpon, 1993.
[2] S. Olim. “Xamsa”ning “Bismillo...”si // Ma’rifat. 2002, 13 – fevral.
[3] Vohidov R. Navoiy va ilohiyot. – Buxoro, 1994. 46-51-betlar.
[4] Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror. To`la asarlar to’plami. 10 tomlik. 6-tom. – T.: G`afur G`ulom. 2013 – 6 b.
[5] Abduqodir Hayitmetov. Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror. Nasriy bayoni bilan. – T.: G`afur G`ulom. 2006 – 245 b.
[6] Quroni Karim. – T.: “Hilol Nashr”. 2019 – 1-b.
[7] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Tafsiri Hilol”. – T.: “Hilol-nashr”. 2008 - 6-b.
[8] Ahmad ibn Hanbal.“Musnad”. Bayrut. DKI. 2009 – 14-juz 329-bet

3. Ilohiy ganjni qo‘riqlaydigan ajdarho.
4. Ahad bog‘i (Yakkalik bog‘i) bulbuli qo‘ngan, Oliy Arsh ichidagi qandil.
5. Vahdat maxzani – yakkalik xazinasiga yetkazuvchi eng yaqin yo‘l.

Shoir mazkur tashbihlarni bayon etgach, “Bismillah”ni vahdat maxzaniga eltuvchi yo‘l deb ta’riflar ekan, shu tashbih doirasida keyingi fikrlarini bildirishda davom etadi: “Bismillah” vahdat maxzaniga eltguvchi yo‘l, ammo qattiq va xafvli yo‘l: “Lekin erur ham qatig‘u, ham maxuf”.

Alisher Navoiy “Bu bodiya” – bu vodiyni kesib o‘tishni istaganlar ikki xayl bo‘lishini ta’kidlaydi: **ahli qabul** va **ahli rad**. Ya’ni dunyo hayotida yashab o‘tayotgan insonlar “vahdat maxzani” tomon yo‘l bosar ekan, ular “Bismillah”ni qabul etuvchi, yoki “Bismillah”ni rad etuvchi toifaga bo‘linadi, uchinchi toifa bo‘lmaydi. “Bismillah”ni rad etuvchilarga “Rahbari tafviq” – Allohdan madad berilmaydi. “Bismillah”ning har bir harfi rad etuvchilarga tahdid, xafv-xatarga aylanadi:

“Bo” (ب) Robbisidan ibo qilishga chorlaydi, “Yo” (ى) esa ularga keladigan balolardan ogoh etadi. “Sin” (س)dan “mim” (م)ga o‘tishda esa kuydiruvchi yel-shamol bor. “Mim” (م) yo‘l boshida og‘zidan o‘t sochib yotgan ilon, uch “alif” (ا), uch “Lom” (ل) olti tomondan rad ahlini – mardudlarni qamrab olgan, “He” (ه) lar esa qatl etuvchi xanjar, “re”lari (ر) rad ahliga qiron keltirishni zohir etadi, “He” (ه)si bo‘yinga ilinadigan sirtmoq, “nun” (ن), yo (ى) lar ham mardudlarning kesilgan boshlaridir: “toshlar o‘lmayki, kesuk boshlar”. “Bismillah”dagi tashdid bu elga ayni shiddatdir. Ahli rad “Bismillah”ni qabul qilmas ekan, ular uchun “Bismillah” ana shunday tahdiddir.

Ammo “Bismillah”ni qabul etganlar, “vahdat maxzani” tomon dunyo vodiysini kesib o‘tar ekanlar, “Bismillah” saodat mujdasiga aylanadi. “Bo” (ب) si jannat bashorati, “sin” (س)i salomatlik-omonlik yo‘lining zinasi, saodat yuzi aks etgan oyna; “Mim” (م) maqsad manziliga yo‘l ochadi, balki maqsad manzilidagi sarchashma – buloq; “alif” (ا) lar jon aro joylashgan bo‘lib, jon shabistoni – qorong‘uligini yorituvchi mamdir; “lom” (ل)lari zarar bayrog‘i, bu zarar bayrog‘ini zafar havosi – shamoli hilpiratadi; “ho” (ه) si “huviyat”da Allohning zikrida jilva etadi, “Lom” (ل) bilan butun olam Allohning mulki ekaniga qoyil; “Ro” (ر)lari jannat eshiklari, “ho” (ه) lari vahdat g‘unchasining beshigi; shu tariqa, Alisher Navoiy “Bismillah”ni mo‘minlar va kofirlar uchun qanday ma’no, mazmun-mohiyat kasb etishini bayon etadi: ahli rad “dog‘ ustiga dog‘”ga qoladi, ahli qabul esa bog‘ ichra. Alisher Navoiyning fikricha, buning hikmati shuki, ahli rad ustida Allohning qahri, ahli qabul uzra Allohning lutfi namoyon bo‘ladi.

“To agar o‘t sochsa, Jaloliyati,

Lutf ila suv urg‘ay Jaoliyati”.[9]

Shoir “Bismillah” tavsirini yakunlash asnosida o‘z nafsiga qarata “vahdat maxzani”ga safar qilar ekan, yo‘lning yomon-yaxshisidan g‘am emaslikka, “Bismillah” deb yo‘lga qadam qo‘yishga chaqiradi.

Alisher Navoiyning “Bismillah”ga bergan ta’rifi asosida uning bu masaladagi quyidagi yondashuvlarini oydinlashtirish mumkin:

Shoir “Bismillah”ni ta’riflashda aniq ilmiy yo‘ldan bormaydi, ya’ni Qur’on yoki hadis, o‘tgan islom ulamolarining bu mavzudagi dalillangan ma’lumotlariga tayanmaydi, balki Shoirona uslubga suyangan holda “Bismillah”ni tashbihlar asosida sifatlaydi va Qur’oniy oyatlardan mahorat bilan foydalanadi.

Quyidagi bayt fikrimizni tasdiqlaydi. Unda **“Al-Mulku lah”** birikmasi orqali Qur’oniy oyatga ishora qilingan.

“Ho”si huviyyatni qilib jilvagah,

[9] Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror. To`la asarlar to’plami. 10 tomlik. 6-tom. – T.: G`afur G`ulom. 2013 – 9 b.

“Lom”i bila qoyili “Al-Mulku lah”[10]

Nasriy bayoni: “Ho”sida mohiyat jilvagah bo`lib, “Lom”i bilan “Podshohlik uningdir”, deyilgan.[11]

يُسَبِّحُ لِلَّهِ مَا فِي السَّمَاوَاتِ وَمَا فِي الْأَرْضِ ۖ لَهُ الْمُلْكُ وَلَهُ الْحَمْدُ ۖ وَهُوَ عَلَىٰ كُلِّ شَيْءٍ قَدِيرٌ[12]

Ma’lumki, “Tag`obun” surasining 1-oyatida Allohning buyukligi, qudrati ta’kidlanar ekan, shunday deyiladi: “**Osmonlardagi narsalar va yerdagi narsalar Allohga tasbih ayturlar. Mulk Unga xosdir, maqtov ham Unga xosdir va U barcha narsaga qodirdir**”. [13]

Hazrat Navoiy birgina iqtibos orqali badiiy matn quvvatni oshirish bilan birga, badiiy matnning tabarrukligi ta’minlashda ilohiy manbadan mahorat bilan foydalanadi.

Alisher Navoiy quyidagi baytda esa Allohning qudratini tashbihlar vositasida ochib bergan.

Oqu qaro uzra berib ishtihor,

Mushk ila kofurini laylu nahor[14]

Nasriy bayoni: Shu tarzda oqu qaro shuhrat tutib kecha va kunduzdan mushk va kofur tarqala boshlagan.[15]

Keltirilgan baytning asosi esa Qur’oni karimdagi “Inson” surasi va “Qiyomat” suralari sanaladi. Ularda shunday yoziladi.

إِنَّ الْأَبْرَارَ يَشْرَبُونَ مِن كَأْسٍ كَانَ مِزَاجُهَا كَافُورًا [16]

“Albatta, yaxshilar kaafur aralashtirilgan qadahdan icharlar”. (Kaafur–ichimlikni xushbo’y va xushta’m qiluvchi modda bo’lib arablar u aralashgan sharobni eng yaxshi sharob hisoblashadi). [17] *(Inson surasi, 5-oyat)*

وَجَعَلْنَا اللَّيْلَ وَالنَّهَارَ آيَتَيْنِ[18]

“Kecha va kunduzni ikki oyat-alomat qildik.”[19] *(Isro surasi, 12-oyat)*

Alisher Navoiy “Bismillah”ga bo‘lgan munosabatini islom dini asosida belgilaydi. “Bismillah” vositasida islomni qabul qilganlar va rad qilganlarning holatini yoritadi.

Alisher Navoiy mazkur bobda o‘ziga xos mahorat bilan muayyan zamon va makonni tasvirlaydi. Ahli qabul va ahli radning kechmishini “Bismillah” harflari ma’nosini ramzlar orqali bayon etarkan, o‘quvchining ko‘z o‘ngida vaqt va harakat jarayonlarini gavdalantiradi.

Shoir “Bismillah” ta’rifi bilan “vahdat” tushunchasini markazga qo‘yadi. Ma’lumki, barcha payg‘ambarlar yer yuziga Allohning yakkaligini – tavhidini yetkazish, insonlarni yakka Allohga ibodat

[10] Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror. To`la asarlar to’plami. 10 tomlik. 6-tom. – T.: G`afur G`ulom. 2013 – 8 b.
[11] Abduqodir Hayitmetov. Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror. Nasriy bayoni bilan. – T.: G`afur G`ulom. 2006 – 246 b.
[12] Quroni Karim. – T.: “Hilol Nashr”. 2019 – 556 b.
[13] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Qur`oni Karim va o`zbek tilidagi ma`nolar tarjimasi”. –T.: “Sharq”. 2008 - 556 b.
[14] Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror. To`la asarlar to’plami. 10 tomlik. 6-tom. – T.: G`afur G`ulom. 2013 – 10 b.
[15] Abduqodir Hayitmetov. “Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror. Nasriy bayoni bilan”. – T.: G`afur G`ulom. 2006 – 247 b
[16] Quroni Karim. – T.: “Hilol Nashr”. 2019 – 578 b.
[17] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Qur`oni Karim va o`zbek tilidagi ma`nolar tarjimasi”. –T.: “Sharq”. 2008 - 578 b.
[18] Quroni Karim. – T.: “Hilol Nashr”. 2019 – 283 b.
[19] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Qur`oni Karim va o`zbek tilidagi ma`nolar tarjimasi”. –T.: “Sharq”. 2008 - 283 b.

qilishga da’vat etmoq uchun yuborilganlar. Tavhid – vahdat, Alisher Navoiy nazdida, maxzan – xazinadir.

“Bismillah” esa ana shu xazinaga insonni musharraf etadi. Zotan, “Bismillah” – Allohning ismi bilan, Rohman va Rohiym Allohning ismi bilan inson hayotga, borliqqa yondashar ekan, shubhasiz, butun mavjudiyatni, o‘zining ishlarini, taqdirini yakka Allohga topshirganini e’lon qiladi. Alisher Navoiy “Bismillah”ning mohiyatini – uning insoniyat uchun naqadar ahamiyatli ekanini yorqin, ta’sirchan, real tushuntirish uchun ham aynan tashbihlarga tayangani ehtimoldan holi emas.

“Bismillah”ni aytish bilan inson butun inon-i ixtiyorini, ishlarini, taqdirini Robbisiga topshirib qo‘yishi, shu bois yomonlik va yaxshilikdan xavotirga tushmasligi kerakligi Shoirning o‘ziga qarata: “yo‘lning yomonu yaxshiligidan g‘am yema”, — tarzidagi ta’kidida ochiq ko‘rinadi. Bu o‘rinda mo‘minning taqdirning yaxshi va yomoniga rozi bo‘lishi lozimligi haqidagi aqida bayon etmoqda.

Metodologiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asaridagi "Basmala" bobining ilohiy manbalarga murojaatini tahlil qilishda badiiy tahlil va intertekstual metodlar qo‘llanilgan. Asar matni va Qur’oni karimdagi oyatlar o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash uchun taqqoslash usuli ishlatilgan. Shuningdek, Navoiy ijodidagi tashbehlar va ramzlarning badiiy mazmunini tushunish uchun adabiy-tasavvufiy tahlil yondashuvi qo‘llanildi. Metodologik yondashuvda, shuningdek, islomiy axloq va diniy manbalar, hadislar va oyatlarga asoslangan tahlillarni o‘z ichiga olgan an’anaviy tafsir metodlari ham qo‘llanilgan. Bu metodlar orqali Navoiy "Bismillah"ni qanday ilohiy ma’nolar bilan boyitganini va u orqali o‘zining tasavvufiy dunyoqarashini qanday ifodalaganini o‘rganishga harakat qilindi.

Natija va Muhokama

Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" asarining "Basmala" bobida Qur’oni karim va hadislarning badiiy ifodalari, tashbehlar va ramzlar orqali chuqur diniy va tasavvufiy ma’nolarni aks ettirgan. Navoiy "Bismillah" kalimasining har bir harfini ilohiy manbalar bilan bog‘lab, uning zohiriy ko‘rinishlarini chuqurroq tasvirlaydi va ularga ma'naviy, ruhiy ma’nolarni singdiradi. Har bir harf, o‘z navbatida, ham qabul qilganlar, ham rad etganlar uchun turli xil ma'no va oqibatlarni ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, Navoiy "Bismillah"ni butun borliqni va hayotning maqsadini tushunishga yetaklovchi bir vosita sifatida ta’riflaydi. "Bismillah"ni qabul etganlar uchun bu kalima jannat va saodatga eltuvchi yo‘lni anglatadi, rad etganlar esa Allohning qahriga duchor bo‘lishadi. Shoirning badiiy uslubi va tasavvufiy yondashuvi orqali "Bismillah"ning nafaqat diniy, balki inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi jabhalari ham ochiladi. Shuningdek, maqola davomida keltirilgan ilmiy tahlillar Navoiy ijodining ilohiy manbalarga asoslanganligini va ularni asarlari orqali tasavvufiy fikrni keng ommaga etkazishdagi muhim rolini namoyish etadi. Navoiy "Bismillah"ni nafaqat diniy matn sifatida, balki badiiy va tasavvufiy nuqtai nazardan ham chuqur tahlil qilgan, bu uning ijodida Allohning yakkaligini e’tirof etish va ruhiy yuksalishga intilishning muhim jihatlarini ifodalaydi. Shunday qilib, Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror"dagi "Basmala" bobini o‘zining tasavvufiy va diniy g‘oyalarini badiiy jihatdan ifodalashda mukammal vosita sifatida ishlatgan. U “Bismillah”ni o‘z asarida faqatgina diniy ibora sifatida emas, balki barcha borliqni tushunish, insonning ma’naviy yo‘liga yo‘l ko‘rsatuvchi va uni Allohga yaqinlashtiruvchi muqaddas vosita sifatida ta’riflagan. Bu yondashuv, Navoiy ijodining ilohiy-moral maqsadlarini yanada ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, Sharq mumtoz adabiyotida yuzaga kelgan adabiy an’analarning asosi islom dinining ulug‘ manbalariga borib taqaladi. Jumladan, mumtoz adabiyot namunalarining basmalayi sharif bilan boshlanishi ham Qur’oni Karimdan aynan olib kirilgan. Chunki mazkur ilohiy kitob avval basmala, keyin “Allohga hamd” degan oyat bilan boshlanadi. Qolaversa, butun musulmon olamida har

Jild: 05, Nashr: 01 | Jan - 2025
ISSN: 2181-2624
www.sciencebox.uz

ishnining ibtidosi shu qutlug‘ oyat bilan boshlanadi. Shunday ekan, hazrat Navoiydek, din va tasavvuf ilmining zakiy olimi o‘z asarini mazkur kalimayi sharif bilan boshlashi tabiiy hol edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алоуддин Мансур. «Қуръони Карим маънолари ва унинг таржимаси». – Т.: Чўлпон, 1992. – 195 б.
2. Абу Али ибн Сино. «Ар-рисолатул меърожиййа» (араб тилида). 129-б.
3. Алишер Навоий. «Ҳайрат ул-аброр». – Т.: Фан, 1991. – 390 б.
4. Воҳидов Р. «Алишер Навоий ва Илоҳият». – Бухоро, 1994. – 91 б.
5. Навоий Алишер. «Мукаммал асарлар тўплами». 20 томлик. 7-том. «Ҳайратул аброр». – Т.: Фан, 1991. 48-б.
6. «Ҳидоят» журнали. 2012 йил. 1-сон. 18-бет.